

## FUTBOL O‘YINIDAGI SAMARALI TAKTIK TIZIMLARNI AHAMIYATI

Karimov Doniyor Komilovich

Atajanov Adilbek Yuldashevich

UrDU Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasи o‘qituvchilarи

Yusufboyev Shoxrux G‘ayrat o‘g‘li

UrDU Sport faoliyati o‘qituvchisi, 2-kurs magistr

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi zamonaviy futbol o‘yinidagi taktik harakatlarning mazmun mohiyati va tadqiqot asosida kuzatilgan hamda o‘rganilgan natijalar tahlil qilinib zarur xulosalar keltirigan.

**Kalit so‘zlar:** futbol o‘yini, taktika, taktik harakatlar, texnik harakatlar, mashg‘ulot jarayoni, tayyorgarlik, hujum taktikasi, himoya taktikasi, taktik tizim.

### АННОТАЦИЯ

В этой статье проанализированы сущность и результаты тактических движений в современном футболе, а также приведены итоги наблюдений в рамках исследования.

**Ключевые слова:** футбольная игра, тактика, тактические движения, технические движения, тренировочный процесс, подготовка, тактика атаки, тактика защиты, до исследования, после исследования, тактическая схема.

### ABSTRACT

The main points of tactic movements in current modern football matches and conclusions which results are analysed and based on the research are considered in this article.

**Key words:** football match, tactics, tactic movements, technical movements, training process, preparation, attack tactics, defence tactics.

**Mavzuning dolzarbligi:** O‘zbekistonda ommaviy va professional futbolni yanada rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, futbolchilaring yangi avlodini tayyorlash va tarbiyalash, Vatanimiz futbolining xalqaro nufuzini oshirish maqsadida, Vazirlar Maxkamasi va shaxsan Respublikamiz Prezidenti SH.M.Mirziyoev tomonidan katta e’tibor qaratilishi, tegishli qaror, farmon va

qonunlarni ishlab chiqilayotganligi va hayotga tadbiq etilayotganligi sport turini taraqqiy etishiga zamin bo‘lmoqda.

Istiqlolli va iqtidorli futbolchilarni tanlash va tayyorlashning samarali tizimini yaratish, milliy terma jamoalar va professional futbol klublari uchun sifatli sport zaxirasini shakllantirish, xalqaro talab va standartlar asosida futbol bo‘yicha trener va hakamlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sон Farmoniga muvofiq 2018 yil 16 martdagi “Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3610-sonli Qarori qabul qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 dekabrdagi “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5887-sон Farmoniga muvofiq futbol sport turini yanada rivojlantirishga katta ahamiyat qaratildi.

Futbol bo‘yicha bo‘lib o‘tgan so‘ngi yirik xalqaro musobaqalar natijalaridan ma’lum bo‘lishicha, jamoani g‘alabasini ta’minlovchi omillardan biri bo‘lib, bu keskin, tezkor, kutilmagandagi harakatlarni samarali bajarish omillari hisoblanmoqda. Bo‘lib o‘tgan so‘ngi Juhon birinchiligi musobaqalarida ham, bir qator jamoalar o‘z jamoasini g‘alabaga erishishdagi taktikasi sifatida aynan, keskinlikdagi harakatlar, texnik-taktik harakatlarni tezkorlikda amalga oshirish bilan o‘z jamoasini o‘yinini tashkil etishga harakat qilishdi. Bundan tashqari bir qator terma jamoalar ham, shu kabi taktika bilan o‘yin olib borishga tayyorgarlik ko‘rishgani ma’lum bo‘ldi. Chunonchi, hozirgi kun futboli shunday jihatlarni ham inobatga olgan xolda tayyorgarlik ko‘rishni taqozo etmoqda ekan, futbolchilarni tayyorgarliklarini ham, aynan, shu kabi holatlarga moslagan holda olib borish kerak deb bilamiz.

Futbol musobaqalarida muvaffaqiyatni belgilovchi omillardan bo‘lib, hozirgi kunda yuqori o‘yin faolligi hisoblanmoqda. Yuqori faollikda o‘yin olib borish uchun esa, futbolchidan yuqori jismoniy tayyorgarlik talab etiladi. Ahamiyatli jihat bo‘lib, yuqori faollikni texnik-taktik harakatlarni samaradorligini tushurmagan holda amalga oshirish xisoblanadi.

Futbol o‘yini eng qiyin va emotsiyal tarzda kechuvchi sport turlaridan hisoblanadi. Fiziologik nuqtai nazaridan futbol dinamik tarzdagi o‘zgaruvchan shiddatda bajariluvchi ish bilan ifodalanadi. O‘yin vaqtida mashqlar turli interval oraliqlarida va turli ketma-ketlikda almashinib bajariladi. Bunda bajarilayotgan ishni shiddati turlicha ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin. To‘p uchun doimiy kurash harakatlari turlicha ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin. Bunda futbolchi yurish, turli shiddatdagi yugurish, keskin to‘xtalishlarni, tezlanishlarni, sakrashlarni, to‘pga zarba

berish harakatlarini, turli ko‘rinishdagi akrobatik harakatlarni amalga oshirishi mumkin.

Bizning mutaxassis va murabbiylar O‘zbekiston futbolida yuqori malakali deb hisoblangan ko‘pgina o‘yinchilarda texnik-taktik harakatlarni ancha past darajada ekanligini takidlashmoqda. Bunga milliy terma jamoamiz safida o‘ynovchi futbolchilarning xalqaro uchrashuvlarida texnik-taktik harakatlardagi kamchiliklarning ko‘rinib qolishi yaqqol misol bo‘la oladi. O‘zbek futbolchilarining keyingi rivojlanish bosqichi to‘g‘ridan-to‘g‘ri yosh bolalar va o‘smirlar futbolini rivojlantirish bilan bog‘liq. Qanchalik bolalar va o‘smirlarni tayyorlash, o‘rgatish jarayoni samarali yo‘lga qo‘yilsa o‘zbek futboli rivojlanishi bosqichi shunchalik samaraliroq kechadi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi:** Hozirga qadar jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va amaliyotida futbol jamoalarining g‘alaba qozonishida taktik tizimlarni samaradorligining tahliliga bag‘ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar bajarilgan bo‘lib, ularda yurtimizning mashhur futbol jamoalarining maydonda qaysi taktik tizimda harakat qilganda g‘alaba ko‘proq qo‘lga kiritilganligi yoritib berilgan. Bundan tashqari boshqa olimlarning ilmiy ishlarida sport mashg‘ulotlarida va musobaqalarda futbolchilarning taktik harakatlari samaradorligini oshirishda to‘g‘risida ilmiy – nazariy va amaliy asoslari hamda uslublari bayon qilingan. Bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan samarali taktik tizimlarni “UrDU” futbol jamoasida qo‘llab, tadqiqot ishini olib bordik.

**Tadqiqot ishining maqsadi:** “UrDU” futbol jamoasining eng samarali taktik tizimini aniqlash va tahlil qilish.

**Tadqiqot maqsadini amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilab olindi:**

- “UrDU” futbol jamoasining eng samarali taktik tizimini aniqlab, tahlil qilish;
- “UrDU” futbol jamoasining samarali zamonaviy taktik tizimini ishlab chiqish.
- futbolchilarni taktik tayyorgarligini oshirishda qo‘llaniladigan zamonaviy mashqlar kompleksini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob’yekti** – Urganch davlat universitetining futbol mashg‘ulot jarayoni va musobaqa davri.

**Tadqiqotning predmeti** –“UrDU” futbol jamoasining eng samarali taktik tizimini aniqlash uslubiyati, shakli, vositalari va metodi.

Zamonaviy futbol har bir futbolchidan, to‘p bilan to‘g‘ri muomalada bo‘lishni to‘pni o‘z jamoadoshlariga aniq uzatishni, darvozaga to‘g‘ri zarba yo‘naltirishni xujumda, himoyada va butun o‘yin davomida aniqlik bilan harakat qilishlarini talab etmoqda, chunki noaniq bir harakat jamoaning uyuştirilgan xujumlarini samarasiz tugallanishiga olib keladi. Yuqori malakali jamoalarda o‘yinchilarning texnik va taktik tayyorgarligidagi nuqsonlarini tuzatish ancha qiyin. Shuning uchun bolalar va

o'smirlarning mashq jarayonlari qanchalik samarali bo'lsa, yuksak natijalar uchun kurashlar ham shunchalik ko'p muvaffaqiyatga olib keladi.

Shuning uchun ham har bir o'yinda tanlangan taktik sxemalar o'yining qanday natija bilan yakunlanishiga bog'liq hisoblanadi. Murabbiy o'yinchilarning maydonda harakat qilish sistemasini chizmalar va videoroliklar orqali tushuntirib izohlab bersa futbolchilarning maydonagi bir-birini tushunib harakat qilishi oson bo'ladi. Quyida "UrDU" jamoasining o'yinlardagi har xil taktik sxemalarda harakat qilgandagi natijalari bilan tanishib chiqamiz (1-jadval).

### 1-jadval

#### **Tadqiqotdan oldin "UrDU" futbol jamoasining taktik sxemadagi o'yin natijalari**

Nº	Sana	Jamoalar	4-3-3	3-4-3	4-4-2	4-5-1	3-5-2
1.	10.11.2021.	"UOZK"					7:6
2.	25.11.2021.	"UOZK"				6:5	
3.	12.12.2021.	Yangibozor		5:3			
4.	19.01.2022.	Xiva	2:2				
5.	26.01.2022.	Xonqa			3:1		
To'plar nisbati			+0	+2	+2	+1	+1

O'r ganilayotgan muammolarni tadqiqot asosda tanlangan taktik sxemalar bo'yicha qanday harakat qilishi va qanday samara berishini aniqlab beradi. Shu maqsadda futbolchilarni taktik harakatlarini o'r ganish uchun nazorat va tadqiqot guruhlarini tashkil qildik (2-jadval).

### 2-jadvali

#### **Tadqiqotdan keyin "UrDU" futbol jamoasining taktik sxemadagi o'yin natijalari**

Nº	Sana	Jamoalar	4-3-3	3-4-3	4-4-2	4-5-1	3-5-2
1.	17.02.2022.	"UOZK"					7:5
2.	10.03.2022.	"UOZK"					6:4
3.	24.03.2022.	"TTA"	3:2				
4.	27.03.2022.	"TTA"		4:2			
5.	29.03.2022.	"TATU"			3:0		
6.	28.04.2022.	"UOZK"	5:5				
7.	14.05.2022.	"TTA"			5:1		
		"TATU"				1:1	
9.	22.05.2022.	"UOZK"			4:0		
To'plar nisbati			+1; -+0	+2;	+3;+4;+4	+0	+2;+2

Ushbu o‘yin natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, tadqiqotlardan oldin UrDU futbol jamoasining **4-3-3** taktik sxemasida harakat qilgan o‘yinida o‘yin 2:2 hisobi bilan durrang bo‘lgan bo‘lsa, to‘plar nisbati ham 0 ga teng bo‘ldi. Tadqiqotdan so‘ng bu taktik sxemada 2 ta o‘yin bo‘lgan bo‘lsa, birinchi o‘yinda 3:2 hisobi qayd etildi va to‘plar nisbati +1 ga yaxshilandi. Ikkinchi o‘yinda 5:5 hisobi qayd etilgan bo‘lsa, to‘plar nisbati 0 ga teng bo‘ldi. **3-4-3** taktik sxemasida bo‘lib o‘tgan o‘yinlarda tadqiqotdan oldin 5:3 hisobi qayd qilinib, unda to‘plar nisbati +2 ni ko‘rsatdi. Tadqiqotdan keyin esa 4:2 hisobiga erishgan bo‘lsak, to‘plar nisbati yana +2 ni ko‘rsatdi. **4-4-2** taktik sxemasida bo‘lib o‘tgan o‘yinlarda tadqiqotdan oldin 3:1 hisobi qayd qilinib, unda to‘plar nisbati +2 ni ko‘rsatdi. Tadqiqotdan keyin esa 3:0; 5:1; 4:0 hisobiga erishgan bo‘lsak, to‘plar nisbati bu o‘yinlarda +3, +4, +4 ni ko‘rsatdi. Bu taktik sxemada futbolchilarimiz boshqa sxemalarga nisbatan yaxshiroq natija ko‘rsatdilar. **4-5-1** taktik sxemasida bo‘lib o‘tgan o‘yinlarda tadqiqotdan oldin 6:5 hisobi qayd qilinib, unda to‘plar nisbati +1 ni ko‘rsatdi. Tadqiqotdan keyin esa “TATU” jamoasi bilan 1:1 hisobiga qayd qilindi, to‘plar nisbati yana 0 ni ko‘rsatdi. **3-5-2** taktik sxemasida bo‘lib o‘tgan o‘yinlarda tadqiqotdan oldin “UOZK” jamoasi bilan 7:6 hisobi qayd qilinib, unda to‘plar nisbati +1 ni ko‘rsatdi. Tadqiqotdan keyin esa yana “UOZK” jamoasi bilan ikki o‘yin bo‘lib o‘tgan bo‘lsa, bu o‘yinlarda 7:5, 6:4 hisoblari qayd etildi, to‘plar nisbati esa mos ravishda +2 ni ko‘rsatdi.

Ushbu o‘rganilgan natija va tahlillar asosida quyidagi xulosalar qilindi:

- nazariy mashg‘ulotlarni musobaqadan yoki mashg‘ulotlardan oldin o‘tkazish maqsadga muvofiqdir, chunki qiyin mashg‘ulot va o‘yindan keyin futbolchilar toliqqan bo‘ladi va nazariy ko‘rsatma va bilimlar samara bermaydi. Mashg‘ulotdan oldin qisqa nazariy darslar o‘tish mumkin, bunda murabbiy oldindagi maqsad va vazifalarni ohib berish, pedagogik texnologiyalar yordamida xatolarni echib berishi, maketlar yordamida mashqlar mazmuni bilan tanishtirish, har bir o‘yinchiga topshiriq berish, oldingi xatolarni to‘g‘rilash yo‘llarini tushuntirishi lozim.

- taktikada nazariy tayyorgarlik o‘yin qoidalarini bilish va taktikaning alohida vositalarini egallahshi ko‘zda tutadi. Futbolchi o‘yinning asosiy tizimlari va ularning variantlarini jamoadagi muayyan ampula o‘yinchilarining vazifasini uchrashuvning har xil bosqichlaridagi harakatlarning o‘zaro munosabatini ob’ektiv shart-sharoitlarning o‘yin jarayoniga ta’siri hamda tashqi omillardan jamoa manfaatlari yo‘lida foydalanishni bilish zarur.

- futbol taktikasi nazariyasini o‘rganish o‘yinning asosiy qoidalarini tushuntirishdan boshlanib, ular o‘yin mashqlarini boshqarish davomida hamda mashg‘ulot o‘yinlari vaqtida amaliy jihatdan o‘zlashtiriladi. Futbolchilarning o‘yin faoliyati sharoitlarida yaxshi mo‘ljal olish va texnik-taktik jihatdan to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati ko‘p jihatdan nazariy bilimlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

To'siqlar shaklidagi maxsus jixozlardan foydalanish, texnik usullarni variantlashtirishga mashg'ulot va musobaqaning o'zgarib turuvchi shart-sharoitlarga duch kelishiga erishiladi.

- yosh futbolchilarni nazariy bilimlarni oshirish va mustahkamlashda metodik xonalarning zamonaviy asbob-uskunalar ya'ni, futbol maydon makedlari, doskalar, video prektor, kompyuter jihozlari bilan jihozlanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Futbol o'yinlardagi taktik uslublarni nazariy mashg'ulotlarda ko'rsatib tushuntirishning afzalligi shundaki, kuchli jamoalarning o'yinini ko'p marotaba o'rghanishga imkon yaratadi. Bundan tashqari o'z taktik harakatlarini tahlil etishga eng samarali yo'llaridan biridir.

- ko'pgina jamoalar maydonga 1-4-4-2 va 1-3-5-2 taktik sistemasida o'yin ko'rsatishmoqda. Ham hujumda, ham himoyada bir xil harakat qilishni olib boradigan jamoa ko'pincha 1-4-4-2 sistemada o'yinni hosil qilishadi. Himoyaviy taktika 1-3-5-2 ko'rinishida o'yinni ko'rsatishadi. "UrDU" jamoamiz ko'pincha yaxshi natijalarni 4-4-2 taktik tizimida qo'lga kiritishdi va shu sababli o'yinlarimizni shu tizimda olib borish maqsadga muvofiqdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. 2018 yil 16 martdagи "Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3610-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 dekabrdagi "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5887-son Farmoni.
3. D.K.Karimov, A.Karimov "Importance of effective tactical systems at football". European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 7 No. 12, 2019. ISSN 2056-585. 248-250 b.
4. Акрамов Р.А. Игровые и тренировочные нагрузки в футболе. Учебное пособие. Ташкент Изд-во.Абу-Али-Ибн-Сино. – 2000 г.
5. D.K.Karimov "Complex-combined method of health training for middle age cyclists". American journal of social and humanitarian research. USA.09.09.2022. p 18-20.
6. R.I.Nurimov, Abidov Sh.U, Nurimov Z.R, S.R.Davletmuradov. "Sport va milliy o'yinlar" (Futbol).Darslik.ITA-PRESS. Toshkent. 2015 yil.
7. D.K.Karimov "O'rta yoshli aholi uchun sog'lomlashtiruvchi yo'nalishdagi mashg'ulotlarni o'tkazish xususiyatlari". "Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences International scientific-online conference. 31.12.2022. Great Britain. 365-369 p.